



## O'RTA OSIYODA DINIY KONFESSIYALARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TARIXI

Xudoyberdiyev Axrorboy Nabi o'g'li

Qarshi davlat universiteti

Tarix yo'nalishi 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7218413>

### ARTICLE INFO

Received: 01<sup>st</sup> October 2022

Accepted: 05<sup>th</sup> October 2022

Online: 17<sup>th</sup> October 2022

### KEY WORDS

*diniy konfessiyalar,  
islom, xristian, O'rta Osiyo,  
katolik, buddaviylik.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada diniy konfessiyalar, O'rta Osiyoda diniy konfessiyalarning shakllanishi va rivojlanish tarixi, O'zbekistondagi diniy konfessiyalar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.*

Diniy konfessiya – muayyan diniy ta'limot doirasida shakllangan va o'ziga xos xususiyatlarga ega e'tiqod va ushbu e'tiqodga ergashuvchilar jamoasi. Konfessiya umumiy atama bo'lib, xristianlik, buddaviylik kabi katta dinlar ham, ularning zamirida paydo bo'lgan pravoslavlik, katoliklik, lamaizm, dzen-buddizm kabi yo'nalishlar ham shunday nom bilan atalaveradi.

Dunyodagi barcha dinlar ezgulik g'oyalari asoslanadi. Ular odamlarni to'g'rilik, shafqat va bag'rikenglikka, birovga ozor ber-maslik, yomon ishlardan tiyilishga, nafs ko'yiga tushib, adashmas-likka chaqiradi. Diniy bag'rikenglik g'oyasi barcha dinlarga xos ana shu umumiy tamoyillarni anglagan holda, ular o'rtasida hamkorlik o'rnatish, barcha din vakillarini, ular bajo keltiradigan diniy rasm-rusum va amallarni hurmat qilishga, shu tariqa ularning kuch va imkoniyatlarini davlat, jamiyat, butun insoniyatning ezgu maqsadlariga xizmat qildirishga da'vat etadi.

O'rta Osiyo mintaqasining qadimda Buyuk Ipak yo'lida joylashganligi bu yerda ko'p millatli va konfessiyali davlatning shakllanishiga sabab bo'ldi. Buyuk Ipak yo'li Shosh, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlar orqali o'tgan. Bu shaharlarda yirik karvonsaroylar, savdo rastalari va bozorlarning rivojlanishi bilan birga turli madaniyat, til va din vakillari ham jamlandi. Tabiiyki, ular o'z urfodat va an'alarini ham olib kirishdi.

Buyuk Ipak yo'li O'rta asrlarda Sharq va G'arb mamlakatlarini o'zaro bog'lagan qit'alararo karvon yo'li. «Buyuk Ipak yo'li» atamasi ushbu yo'ldan tashilgan qimmatbaho tovar – Xitoy ipagi bilan bog'liq. O'rta Osiyoda qadimdan jahon dinlari – buddaviylik, xristianlik, islom dinlari tarqalgan. Shuningdek, moniylik va yahudiylik dinlari ham mavjud bo'lgan. Jahon miqyosida zardushtiylikning diniy manbasi Avestoni o'rganish avestoshunoslik nomini olgan. Hozir AQSh, Rossiya, Eron, Hindiston davlatlarida yirik



avestoshunoslik markazlari mavjud. Bugungi kunda eng yirik zardushtiy jamoalari — Eron gebrlari va Hindiston parslari o'rtasida faqatgina til, ibodatlarni o'tkazish shakli va yil hisobi borasida ba'zi ixtiloflar mavjud. Ayni damda Hindistonda ruhiy jihatga e'tibor beruvchi qator guruhlar yuzaga kelgan.

Globalashuv ta'sirida so'nggi vaqtlarda zardushtiylikni isloh qilish, ko'pgina marosimlarni bekor qilib, faqat «Gat»larni muqaddas kitob deb tan olish fikri olg'a surilmoqda. Hozirda jahon miqyosida zardushtiylik Hindistonda 100 ming, Eronda 50 ming, Yevropa, Osiyo mamlakatlari hamda Amerikada bir necha ming kishini tashkil etadi. Markaziy Osiyo mintaqasida yuzaga kelgan dinlardan yana biri bu tangrichilikdir. Mintaqa xalqlari tarixida mazkur e'tiqodning o'ziga xos o'rni bo'lgan. Tangrichilik tarixi o'lkamiz xalqlarining o'tmish madaniyati, ijtimoiy hayoti va turmush tarzi haqida ma'lumot beruvchi tarixiy manbalardan biridir.

Bugungi kunda O'rta Osiyo xalqlari orasida tangrichilikni qadimiy diniy an'ana sifatida tiklashga urinishlar bor. Bunday harakatlar ortida ayrim g'arazli maqsadlar ham yotganini sezish mumkin. 1990-yillardan boshlab tangrichilikka e'tiqod qiluvchi guruhlar paydo bo'la boshladi. Ataylab ko'tarib chiqilayotgan bu holat aholi orasida bo'linishlarga olib kelishi mumkin. Chunki bugungi kunda ushbu mintaqada o'zlarining ko'p asrlik diniy e'tiqodlariga ega bo'lgan turli millat va elatlar istiqomat qiladilar. Shunday sharoitda tangrichilik dinini qayta tiklashga urinish milliy va diniy ziddiyatlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

XXI asrning boshlarida O'rta Osiyo mintaqasida joylashgan mamlakatlar – Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistonda o'ziga xos

diniy manzaraga guvoh bo'lishimiz mumkin. Qozog'iston Respublikasida rasman 18 konfessiya tarkibida 3600 dan ortiq diniy tashkilot mavjud. Shuningdek, mamlakatda 246 ta noan'anaviy diniy guruhlar va yangi jamoatlar (missionerlar) ham faoliyat ko'rsatadi. Turkmaniston Respublikasida 13 ta diniy konfessiya ro'yxatga olingan. Mamlakatda 128 ta diniy tashkilot mavjud. Qirg'iziston Respublikasida 30 dan ortiq diniy konfessiyalar mavjud. Shuningdek, mamlakatda 246 ta noan'anaviy diniy guruhlar va yangi jamoatlar (missionerlar) ham faoliyat ko'rsatadi. Turkmaniston Respublikasida 13 ta diniy konfessiya ro'yxatga olingan. Mamlakatda 128 ta diniy tashkilot mavjud. Qirg'iziston Respublikasida 30 dan ortiq diniy konfessiyalar mavjud. Qo'shimcha ma'lumot sifatida shuni aytish kerakki, Qozog'istonda musulmon (2517 ta diniy tashkilot) va pravoslav (323) diniy jamoalari yetakchi o'rinlarda boryapti. Ular mamlakatdagi e'tiqod qiluvchi aholi qatlamining 95% ni tashkil qiladi. Turkmanistonda 99 ta diniy tashkilot islom dinining sunniylik yo'nalishi, 5 tasi shia oqimi, 13 tasi rus pravoslav cherkoviga (3 tasi Ashxobod shahrida joylashgan) va 11 tasi boshqa din vakillariga (Katolik cherkovi – 1 ta, Krishnani anglash jamoasi – 1 ta, Bahoiylar – 1, Baptistlar – 1, Pyatidesyatniklar – 1, Velikaya blagodat – 1, Yettinchi kun adventistlari – 1 ta va Yangi apostol jamoasi – 1 ta) tegishli. Tojikistonda taxminan 3000 dan ziyod masjid mavjud. Shuningdek, Rus pravoslav, Yevangel xristian-baptistlar, Rim-katolik, Yettinchi kun adventistlari, Yevangel lyuteran, Iegovo shohidlari cherkovlari, bahoiy, zardushtiylik, yahudiy diniy jamoalari kabi diniy tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan.



Diniy konfessiyalar manzarasi rang-barangligini O'zbekistonda rasman ro'yxatdan o'tib, faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar misolida ham ko'rish mumkin. Xristianlikka mansub bo'lsa-da, yurtimizdagi 11 ta yo'nalishning har biri o'zini alohida diniy konfessiya, deb hisoblashi fikrimizning isboti bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasida 2017-yil dekabr holatiga ko'ra 16 konfessiya faoliyat ko'rsatmoqda. Ular quyidagilardir: – Islom (O'zbekiston musulmonlari idorasi); – Pravoslavlik (Toshkent va Markaziy Osiyo yeparxiyasi); – Katoliklik (Rim-katolik cherkovi); – Lyuteranlik (Nemis-lyuteran cherkovi); – Arman-apostol cherkovi; – Pyatidesyatniklar (To'liq injil xristianlari); – Baptistlar (Yevangel-xristian baptistlar cherkovi); – Novoapostol cherkovi; – Yettinchi kun adventistlari; – «Golos bojiy»; Iegovo shohidlari; – Koreys protestant cherkovlari; – Yahudiylik; – Bahoiylik; – Krishnani anglash jamiyati; – Buddaviylik.

Bugungi kunda O'zbekistonda 16 diniy konfessiyaga mansub 2313 ta diniy tashkilot faoliyat yuritadi. Shundan 2122 tasi islomiy, 174 ta xristian diniy tashkiloti, 8 ta yahudiy, 6 ta bahoiy jamoalari, 1 ta krishnani anglash jamiyati, 1 ta buddaviylar ibodatxonasi va 1 ta O'zbekiston Bibliya jamiyatidir. Shuningdek, qisqa muddat ichida 54 ta masjid yangidan barpo etildi, 17 ta yangi noislomiy diniy tashkilot o'z faoliyatini boshladi.

Din ishlari bo'yicha qo'mita huzuridagi Konfessiyalar ishlari kengashining tarkibi O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar vakillari hisobiga 9 tadan 17 ta a'zoga kengaydi. Ushbu kengashning yig'ilishlari muntazamlik kasb etib, yiliga ikki marta o'tkazilmoqda.

Ma'lumki, joriy yilning 5-iyul kuni O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun konfessiyalararo totuvlikni ta'minlash, jamiyatda turli din va e'tiqod vakillari o'rtasida o'zaro bag'rikenglik, hamjihatlikni yanada mustahkamlashda huquqiy asos bo'lib xizmat qilishini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Mamlakatimizda diniy ta'lim tizimi ham tubdan takomillashtirildi, yangidan-yangi ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Konfessiya»so'zining mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda, mutaxassislar hozirgi kunda dunyoda taxminan 1000 dan ortiq diniy konfessiyalar mavjud, deb hisoblaydilar. Xulosa qilib aytganda, dinlararo bag'rikenglik g'oyasi insoniyatning ma'rifiy asosda, o'zaro hamjihat bo'lib taraqqiy etish zaruratidan kelib chiqqan bo'lib, u ezgulik yo'lidagi hamkorlik barcha din vakillarining manfaatlariga mos ekanini anglashga va shu asosda harakat qilishga da'vat etadi.

### References:

1. Ўзбекистон Республикасининг «Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида»ги Қонуни (янги таҳрир). Ўзбекистонни янги қонунлари.-Т. 19, Т.: «Адолат», 1998
- 2.Имом ал-Бухорий. Ал-Адаб ал-муфрад. Т.: «Ўзбекистон», 1990. 3.Исҳоқов М.М. Халқ даҳосининг қадимги илдизлари ва илк куртаклари (Зардуштийлик, Зардушт ва Авесто ҳақида). «Тил ва адабиёт таълими» журнали, 2-сон, 1992. 4. Маҳмудов Т. «Авесто» ҳақида.



Т.: 2000. 5. Мўминов А. ва бошқ. Диншунослик (дарслик). Т.: «Меhнат», 2004. 6. Уватов У.  
Буюк мухаддислар: Имом ал-Бухорий, Имом Муслим, Имом ат-Термизий. Т.: Ўзбекистон  
Миллий энциклопедияси. 1998.